



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

QOZOG‘ISTONDA POYTAXT KO‘CHIRILISHI VA UNING MIGRATSIYA JARAYONLARIGA TA’SIRI

Shoxista Xamraqulova

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qozog‘iston Respublikasi poytaxtining 1997-yilda Olmaotadan Ostonaga ko‘chirilishi hamda ushbu qarorning mamlakatdagi migratsiya jarayonlariga ta’siri tarixiy va statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda poytaxtni ko‘chirishning siyosiy, geosiyosiy, iqtisodiy va etnodemografik omillari yoritilib, uning ichki migratsiya, urbanizatsiya va aholi tarkibidagi o‘zgarishlarga ko‘rsatgan ta’siri baholanadi. Shuningdek, Ostona shahrining yangi siyosiy markaz sifatida shakllanishi, urban rivojlanishning jadallashuvi va mamlakatning hududiy rivojlanishidagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari poytaxtni ko‘chirish siyosati Qozog‘istonda migratsiya oqimlarining yo‘nalishini o‘zgartirish va etnodemografik muvozanatni mustahkamlashda muhim omil bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Qozog‘iston, Ostona, Olmaota, migratsiya, urbanizatsiya, etnodemografiya, ichki migratsiya, poytaxt, demografik siyosat, qandaslar.

ПЕРЕНОС СТОЛИЦЫ В КАЗАХСТАНЕ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ

Шохиста Хамракулова

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, доцент

Аннотация

В статье анализируется перенос столицы Республики Казахстан из Алматы в Астану и его влияние на миграционные процессы в стране. На основе исторических и статистических данных рассматриваются политические, геополитические, экономические и этнодемографические факторы переноса столицы. Особое внимание уделяется влиянию данного решения на внутреннюю миграцию, урбанизацию и изменение этнического состава населения. Сделан вывод о том, что перенос столицы стал важным инструментом регионального развития и регулирования миграционных процессов.

Ключевые слова: Казахстан, Астана, Алматы, миграция, урбанизация, демография, внутренняя миграция, столица.

THE RELOCATION OF THE CAPITAL IN KAZAKHSTAN AND ITS IMPACT ON MIGRATION PROCESSES

Shoxista Khamraqulova

Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Associate Professor

Abstract

This article examines the relocation of the capital of Kazakhstan from Almaty to Astana and its impact on migration processes. Based on historical and statistical data, the political, geopolitical, economic and ethnodemographic factors behind the relocation are analyzed. Particular attention is paid to its influence on internal migration, urbanization and demographic transformation. The study concludes that the transfer of the capital became an important instrument of regional development and migration management in Kazakhstan.

Keywords: Kazakhstan, Astana, Almaty, migration, urbanization, ethnodemography, internal migration, capital city.

XX asrning oxirlarida Sovet Ittifoqining parchalanishi natijasida mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo davlatlari o‘z milliy taraqqiyot strategiyalarini shakllantirish jarayoniga kirishdi. Ushbu jarayon doirasida Qozog‘iston Respublikasida amalga oshirilgan eng muhim siyosiy va ma‘muriy qarorlardan biri poytaxtning Olmaotadan Akmolaga, keyinchalik Ostona deb nomlangan shaharga ko‘chirilishi bo‘ldi.

Poytaxtni ko‘chirish masalasi tarixda ko‘plab davlatlar tajribasida uchragan bo‘lsa-da, postsovet hududida bunday qaror kamdan-kam kuzatiladi. Shu sababli Qozog‘iston tajribasi nafaqat siyosiy

boshqaruv, balki migratsiya, urbanizatsiya va hududiy rivojlanish nuqtai nazaridan ham alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

1994-yil 6-iyulda Qozog‘iston Respublikasi Oliy Kengashi poytaxtni ko‘chirish to‘g‘risida qaror qabul qildi. 1997-yil 10-dekabrda Akmola rasman mamlakat poytaxti deb e‘lon qilindi. 1998-yil may oyidan boshlab shahar Ostona nomini oldi. Ushbu qaror natijasida mamlakatning siyosiy markazi janubdan markaziy hududga ko‘chirildi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, poytaxtni ko‘chirish faqat ma‘muriy qaror bo‘lib qolmay, balki migratsiya oqimlari, urbanizatsiya sur‘atlari va etnodemografik jarayonlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, Ostonaning qisqa muddat ichida yirik siyosiy, iqtisodiy va migratsion markazga aylanishi ushbu mavzuni chuqur o‘rganishni talab etadi.

Mavzuning tarixshunosligi: Qozog‘istonda migratsiya va urbanizatsiya jarayonlari ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Mazkur yo‘nalishda E.Yu. Sadovskayaning ilmiy ishlari alohida o‘rin tutadi. Muallif Qozog‘istondagi migratsiya oqimlarining shakllanishi, etnik migratsiya va ichki migratsiya xususiyatlarini batafsil tahlil qilgan [1].

N.A. Nazarboyevning asarlarida poytaxtni ko‘chirishning siyosiy va strategik sabablari yoritilgan[2]. Muallif yangi poytaxt mamlakatning hududiy yaxlitligini mustahkamlash, iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish va milliy davlat qurilishi jarayonini jadallashtirishga xizmat qilganini ta‘kidlaydi.

So‘nggi yillarda urbanizatsiya va migratsiya masalalari xalqaro tashkilotlar, statistik markazlar hamda mustaqil tadqiqotchilar tomonidan ham keng o‘rganilmoqda. Xususan, Statistika va Qozog‘iston Milliy statistika byurosi ma‘lumotlari mamlakatda shaharlashuv sur‘atlarining izchil o‘sayotganini ko‘rsatadi[4].

Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyati migratsiya yoki urbanizatsiyani alohida yo‘nalish sifatida o‘rganadi. Poytaxtni ko‘chirishning migratsion jarayonlarga uzoq muddatli ta‘sirini kompleks tarzda tahlil qiluvchi tadqiqotlar nisbatan kam uchraydi. Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi aynan ushbu masalani tarixiy va zamonaviy ma‘lumotlar asosida yoritishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi Tadqiqotda tarixiy-qiyyosiy, statistik, tizimli va xronologik tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, migratsiya va urbanizatsiya jarayonlariga oid ilmiy adabiyotlar, statistik to‘plamlar va rasmiy hujjatlar o‘rganildi. Tadqiqotning manbaviy asosini E.Yu. Sadovskayaning migratsiya masalalariga bag‘ishlangan ilmiy ishlari [1], Qozog‘iston Respublikasi aholini ro‘yxatga olish natijalari [3], Milliy statistika byurosi ma‘lumotlari hamda zamonaviy statistik manbalar tashkil etadi [4,5]. Tadqiqotning xronologik doirasi 1991–2025-yillarni qamrab oladi. Bu davr Qozog‘iston mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab zamonaviy urbanizatsiya va migratsiya jarayonlarining shakllanish bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

Qozog‘iston Respublikasi poytaxtining Olmaotadan Ostona ko‘chirilishi mamlakat mustaqilligi tarixidagi eng muhim strategik qarorlardan biri hisoblanadi. Ushbu qarorning rasmiy va norasmiy sabablari mavjud bo‘lib, ular siyosiy, iqtisodiy, geosiyosiy va etnodemografik omillar bilan chambarchas bog‘liq edi. Rasmiy manbalarda Olmaotaning seysmik jihatdan xavfli hududda joylashgani, ekologik muammolarning kuchaygani va shaharning hududiy kengayish imkoniyatlari cheklanganligi asosiy sabab sifatida ko‘rsatildi. Darhaqiqat, Olmaota tarixan zilzila xavfi yuqori bo‘lgan hududda joylashgan bo‘lib, aholining tez o‘sishi va avtomobillar sonining ortishi ekologik muammolarni yanada kuchaytirgan edi. Biroq tadqiqotchilar poytaxtni ko‘chirishning geosiyosiy va etnodemografik omillarini ham alohida ta‘kidladilar. 1989-yilgi aholini ro‘yxatga olish natijalariga ko‘ra, Qozog‘istonning shimoliy va markaziy hududlarida rusabon aholi ulushi juda yuqori bo‘lgan. Ayrim viloyatlarda ruslar va boshqa slavyan xalqlari aholining yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etgan [6]. Shu bilan birga, mamlakatning janubiy hududlarida qozoq aholisi sonining tez sur‘atlarda o‘sishi, mehnat resurslarining ortiqchiligi va ishsizlikning yuqoriligi kuzatilgan. Bu esa mamlakat hududlari o‘rtasida demografik nomutanosiblikni yuzaga keltirgan. Poytaxtning markaziy hududga ko‘chirilishi davlatning hududiy yaxlitligini mustahkamlash, shimoliy hududlarni iqtisodiy rivojlantirish va ichki migratsiyani rag‘batlantirish vositasi sifatida qaraldi. Shu jihatdan qaralganda, poytaxtni ko‘chirish Qozog‘istonning milliy davlat qurilishi strategiyasining muhim tarkibiy qismi bo‘ldi[7]. Tashqi siyosiy omillar ham muhim rol o‘ynagan. Olmaotaning mamlakat janubida, Xitoy chegarasiga nisbatan yaqin joylashgani ham strategik jihatdan ayrim xavotirlarni yuzaga keltirgan. Shu sababli davlat boshqaruvi markazini mamlakat markaziga yaqin hududga ko‘chirish xavfsizlik nuqtai nazaridan ham maqsadga muvofiq deb hisoblangan.

Poytaxt ko‘chirilgunga qadar Akmola shahri o‘rta hajmdagi mintaqaviy markaz hisoblangan.

1990-yillarning boshlarida shaharda migratsiya saldosini manfiy bo'lib, aholi sonining kamayishi kuzatilgan. Iqtisodiy inqiroz va sanoat korxonalarining qisqarishi migratsion yo'qotishlarni kuchaytirgan. 1997-yildan boshlab vaziyat tubdan o'zgardi. Davlat organlarining Olmaotadan Ostonaga ko'chirilishi natijasida minglab davlat xizmatchilari, ularning oilalari hamda xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar yangi poytaxtga kela boshladilar [9]. 1998-yilda Ostonaga kelgan migrantlarning 94 foizdan ortig'i mamlakat ichkarisidan ko'chib kelgan fuqarolar bo'lgan. Migrantlarning asosiy qismi Aqmola, Shimoliy Qozog'iston, Qarag'anda va Qo'stanay viloyatlaridan kelgan [10]. Davlat idoralari ko'chirilishi xususiy sektor rivojlanishini ham jadallastirdi. Qurilish kompaniyalari, banklar, savdo tashkilotlari va xizmat ko'rsatish korxonalari Ostonada o'z faoliyatini kengaytira boshladi. Natijada yangi ish o'rinlari yaratildi va migratsiya oqimlari yanada kuchaydi. Ostonada qisqa muddat ichida mamlakatning eng jozibador mehnat bozorlaridan biriga aylandi. Ayniqsa yosh mutaxassislar, quruvchilar va davlat xizmatiga intiluvchi fuqarolar orasida poytaxtga ko'chib kelish tendensiyasi kuchaydi.

Poytaxtning ko'chirilishi nafaqat migratsiya oqimlariga, balki aholining etnik tarkibiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. 1989-yilda shaharda qozoqlar aholining 17,7 foizini tashkil etgan bo'lsa, 1999-yilga kelib ularning ulushi 41,8 foizga yetdi. Shu davrda ruslar ulushi 54,1 foizdan 40,5 foizgacha qisqardi [11]. Mazkur o'zgarishlarning asosiy sabablari ichki migratsiya va tashqi emigratsiya jarayonlari bilan bog'liq edi. Bir tomondan, mamlakatning janubiy va markaziy hududlaridan qozoq aholisi poytaxtga faol ko'chib kela boshladi. Ikkinchi tomondan, ruslar, ukrainlar va nemislarining bir qismi Rossiya va Germaniyaga emigratsiya qildi. Natijada Ostonada asta-sekin qozoq etnik guruhi ustunlik qiluvchi yirik urbanistik markazga aylandi. Bu holat mamlakatning etnodemografik rivojlanish strategiyasi bilan hamohang tarzda kechdi. Poytaxtdagi etnodemografik o'zgarishlar keyingi yillarda ham davom etdi. XXI asrning birinchi choragiga kelib Ostonada mamlakatning eng tez o'sayotgan shaharlaridan biriga aylandi va aholining milliy tarkibida qozoq etnosining salmog'i yanada ortdi.

2000-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab Qozog'istonda urbanizatsiya jarayonlari sezilarli darajada jadallashdi. Bu jarayonning markazida Ostonada va Olmaota shaharlari turdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda Qozog'iston aholisining 62,07 foizi shaharlarda istiqomat qilgan. Bu ko'rsatkich 1960-yilga nisbatan 17,34 foiz punktga yuqori bo'lib, mamlakatda urbanizatsiya jarayonlarining uzoq muddatli o'sishini aks ettiradi [14]. Agar 2010-yilda shahar aholisi ulushi 56,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilda 57,4 foizga, 2020-yilda 59 foizga, 2025-yilda esa 63,3 foizga yetgan. Ushbu ko'rsatkichlar shaharlashuvning barqaror sur'atlarda rivojlanayotganini ko'rsatadi. Urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvida Ostonada alohida o'rin tutadi. 2026-yil boshidagi ma'lumotlarga ko'ra, Ostonada aholisi 1,64 million kishiga yetgan bo'lib, u mamlakatning ikkinchi yirik shahri hisoblanadi. Birinchi o'ringa esa Olmaota shahri turadi [9]. Prezident Qosim-Jomart Toqayev qayd etganidek, so'nggi uch yil ichida Ostonaning aholisi 250 ming kishidan ortiq ko'paygan. Faqat bir yilning o'zida poytaxtga 100 mingga yaqin yangi aholi kelib qo'shilgan. Bu esa migratsiya oqimlarining poytaxt tomon yuqori darajada yo'nalganligini ko'rsatadi. Mazkur tendensiyalar Ostonada nafaqat siyosiy markaz, balki mamlakatning asosiy migratsion va urbanistik markazlaridan biriga aylanganini tasdiqlaydi [10].

Qozog'iston mustaqillikka erishganidan keyin amalga oshirilgan muhim demografik siyosatlaridan biri xorijdagi etnik qozoqlarni tarixiy vatanga qaytarishga qaratilgan dastur bo'ldi. Ushbu siyosat dastlab "oralman", keyinchalik esa "qandas" tushunchasi bilan ifodalana boshladi [8].

Mazkur siyosatning asosiy maqsadi mamlakatning demografik salohiyatini mustahkamlash, mehnat resurslari taqchilligini kamaytirish va etnodemografik muvozanatni qo'llab-quvvatlashdan iborat edi. Ayniqsa, aholisi kamayib borayotgan shimoliy va markaziy hududlarga etnik qozoqlarni joylashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 1991–2025-yillar davomida Qozog'istonga 1 million 156 mingdan ortiq etnik qozoq qaytib kelgan. Bu ko'rsatkich mamlakat tarixidagi eng yirik repatriatsiya jarayonlaridan biri hisoblanadi. 2025-yilning dastlabki sakkiz oyi davomida 8051 nafar etnik qozoq "qandas" maqomini olgan. Ularning 44,2 foizi O'zbekistondan, 43,2 foizi Xitoydan, 5 foizi Turkmanistondan, 2,7 foizi Mo'g'ulistondan va 2,4 foizi Rossiyadan ko'chib kelgan. Davlat tomonidan ko'chib kelgan fuqarolarga uy-joy, transport xarajatlari va ijtimoiy moslashuv bo'yicha yordam berilmoqda. Iqtisodiy mobillik sertifikatlari tizimi joriy etilib, oilalarning uy-joy xarajatlari bir qismini qoplash mexanizmi yo'lga qo'yilgan. Mazkur siyosat poytaxt va yirik shaharlardagi migratsiya oqimlariga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Ayrim qandaslar Ostonada, Olmaota va boshqa yirik shaharlarga joylashayotgan bo'lsa, davlat ularning bir qismini shimoliy viloyatlarga yo'naltirishga harakat qilmoqda [8].

Tadqiqot natijalari Qozog'istonda poytaxtning ko'chirilishi migratsiya jarayonlariga sezilarli

ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi.

*Birinchi*dan, poytaxtning Ostonaga ko'chirilishi mamlakat ichidagi migratsiya oqimlarining geografiyasini o'zgartirdi. Agar mustaqillikning dastlabki yillarida migratsiya asosan Olmaota yo'nalishida kechgan bo'lsa, 1997-yildan keyin Ostona yangi migratsion markaz sifatida shakllandi [13].

*Ikkinchi*dan, mazkur qaror shimoliy va markaziy hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga turtki berdi. Davlat investitsiyalarining katta qismi yangi poytaxt infratuzilmasini rivojlantirishga yo'naltirildi. Natijada qurilish, transport, xizmat ko'rsatish va moliya sektorlarida minglab yangi ish o'rinlari yaratildi.

*Uchinchi*dan, poytaxtni ko'chirish etnodemografik jarayonlarga ham ta'sir ko'rsatdi. Ostona qozoq aholisi ulushining keskin ortishi ichki migratsiya va repatriatsiya siyosatining natijasi sifatida namoyon bo'ldi.

*To'rtinchi*dan, urbanizatsiya sur'atlari sezilarli darajada tezlashdi. 2024-yilda mamlakat aholisining 62 foizdan ortig'i shaharlarda yashagani, 2025-yilda esa bu ko'rsatkich 63 foizdan oshgani urbanizatsiya jarayonlarining davom etayotganini ko'rsatadi [12].

Shu bilan birga, ayrim muammolar ham saqlanib qolmoqda. Poytaxtga migratsiyaning haddan tashqari kuchayishi uy-joy narxlarining oshishi, transport yuklamasining ortishi va infratuzilma tizimlariga bosimning kuchayishiga olib kelmoqda. Shu sababli mamlakat rahbariyati hududiy rivojlanishning yangi markazlarini shakllantirish zarurligini ta'kidlamogda [10].

XULOSA Qozog'iston Respublikasi poytaxtining Olmaotadan Ostonaga ko'chirilishi mustaqillik davridagi eng muhim siyosiy va strategik qarorlardan biri bo'ldi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur qaror faqat ma'muriy-boshqaruv tizimining o'zgarishi bilan cheklanmagan. U mamlakatdagi migratsiya oqimlari, urbanizatsiya jarayonlari, hududiy rivojlanish va etnodemografik tarkibga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatgan. Ostona qisqa muddat ichida yirik siyosiy markazdan tashqari iqtisodiy, demografik va urbanistik markazga aylandi. Poytaxtga yo'nalgan ichki migratsiya oqimlari shahar aholisining tez o'sishiga sabab bo'ldi. Shu bilan birga, davlatning qandaslar siyosati ham mamlakatning etnodemografik rivojlanishiga muhim hissa qo'shdi. Bugungi kunda Ostona va Olmaota Qozog'istonning eng jozibador migratsiya markazlari bo'lib qolmoqda. Kelajakda urbanizatsiya jarayonlarini muvozanatli boshqarish, mintaqalararo tafovutlarni kamaytirish va infratuzilma yuklamalarini optimallashtirish davlat siyosatining muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Садовская Е.Ю. Миграция в Казахстане в начале XXI века: основные тенденции и перспективы. – Алматы: Ғылым, 2001. – 313 с.
2. Назарбаев Н.А. Казахстанский путь. – Караганда: Арко, 2006. – 372 с.
3. Итоги переписи населения Республики Казахстан 1999 года. Краткие итоги переписи населения. – Алматы: Агентство Республики Казахстан по статистике, 1999. – 113 с.
4. Агентство по стратегическому планированию и реформам Республики Казахстан. Бюро национальной статистики. Демографический ежегодник Казахстана. – Астана, 2024. – 412 с.
5. Агентство по стратегическому планированию и реформам Республики Казахстан. Бюро национальной статистики. Социально-экономическое развитие Республики Казахстан: статистический сборник. – Астана, 2025. – 356 с.
6. United Nations. World Urbanization Prospects 2024. – New York: United Nations Department of Economic and Social Affairs, 2024. – 126 p.
7. International Organization for Migration (IOM). Migration Trends in Central Asia. – Geneva: IOM, 2023. – 98 p.
8. Министерство труда и социальной защиты населения Республики Казахстан. Информация о переселении кандасов в 2025 году // Официальный сайт Министерства труда и социальной защиты населения Республики Казахстан.
9. Clark D. Urbanization in Kazakhstan // Statista. – 2024. – URL: Urbanization in Kazakhstan.
10. Clark D. Largest Cities in Kazakhstan // Statista. – 2026. – URL: Largest Cities in Kazakhstan .
11. Kazakhstan's Migration Flows Lean Strongly Toward Cities // The Astana Times. – 2025. – URL: The Astana Times article .
12. Central Asia Monitor. Nearly Half of Ethnic Kazakhs Returning to Kazakhstan in 2025 Came from Uzbekistan. – 2025.
13. Абалкин Л.И. Региональная экономика и территориальное развитие. – Москва: Экономика, 2000. – 415 с.
14. Тощенко Ж.Т. Социология миграции. – Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2015. – 287 с.